

Pudrat shartnomasi

Nizom asosida ish yurituvchi «Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy Tumani Xalq Ta'lifi Bo'limi», kelgusi o'rirlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi va uning rahbari A.Xudaybergenov bir tomonidan, xamda Nizom asosida ish yurituvchi "PIXART" MChJ, kelgusi o'rirlarda «Pudratchi» deb yuritiladi va uning rahbari Iskandarov B ikkinchi tomonidan:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy Tumani 4-son maktabini joriy tamirlash buyicha Loyixa-smeta xujjatlarini tayyorlash, kurilishda mualliflik nazorati olib borish, Bino bosh rejası xamda Fasad ko'rinishini takdim kilish, Arxitektura rejalshtirish topshirig'i tegishli tashkilotlardan buyurtmachi sifatida olib berish, va davlat ekspertiza hulosasini olish bo'yicha pudrat shartnomasini tuzdilar.

1. Shartnomaning mazmuni

1.1. Buyurtmachi topshiradi, Pudratchi o'ziga quyidagi ishlarni **Korakalpog'iston Respublikasi Beruniy Tumani 4-son** maktabini Joriy tamirlash buyicha loyixa-smeta xujjatlarini tayyorlash va davlat ekspertiza hulosasini olish majburiyatini bajarishga kirishadi.

1.2. Pudratchi ko'rsatib o'tilgan ishlarni «Korxonalar, bino va inshootlar kurilishiga smeta xujjatlarining tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash» xaqidagi

ShNK 1.03 01-03 qoida va qo'llanmalari va mazkur shartnomaning hujjalariiga asoslanib bajaradi va tugallaydi.

1.3. Bajariladigan ishlarga ilmiy, texnik, iqtisodiy va boshqa talablar ishlarni bajarish uchun texnik topshiriqlarda bo'ladi va mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.4. Ishlarning alohida bosqichlarining ro'yxati va bajariladigan muddati kalendar reja asosida aniqlanadi va mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.5. Pudratchi buyurtmachi tomonidan yozma ruxsatini kutmasdan qo'shimcha ichki xo'jalik shartnomasini (Pudratchi tomonidan bajarilmaydigan, lekin mazkur shartnomani bajarishda kerak bo'lgan maxsus tadqiqot ishlariga) tuzishga xaqlidir.

Qo'shimcha shartnomalarni tuzish Pudratchining zimmasiga yuklatilgan mazkur shartnomaning shartlarini bajarish javobgarligidan ozod etmaydi.

1.6. Xo'jalik shartnomasini bajarishdan bosh tortish va shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

2. Pudratchining majburiyatları

2.1. Pudratchi buyurtmachi tomonidan berilgan texnik topshiriq va boshqa boshlang'ich xujjatlar asosida ishlarni bajarishi lozim;

- Mazkur shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlar xaqida buyurtmachiga axborot beradi.

2.2. Pudratchi mazkur shartnoma asosida bajarilgan ishlarni buyurtmachining ruxsatisiz uchinchchi shaxsga berishga xaqli emas.

2.3. Buyurtmachining majburiyatları:

- Pudratchiga mazkur shartnomada ko'zda tutilgan sharoitlarda ishlarni bajarishda ta'sir ko'rsatish;

- Pudratchi bilan bajarilgan ishlar (boskichlar) ning natijalarini kelishish;

- Shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni, ularning mazmuniini Pudratchining roziligidisiz uchinchchi shaxsga bermaslik;

- Pudratchi tomonidan bajarilayotgan ishlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini ku'zatib borish va aniqlangan taqdirda tegishli dalolatnoma (defektlyu akt) tuzish.

3. Shartnoma bo'yicha ishlarning narxi

3.1. Tentr komissiyasi tomonidan golib loyixa tashkilotga buyurtmachi tomonidan Bajariladigan ishlarning umumiyligi qiymati **38 900 000** sumni tashkil etadi.

Smeta xamda ekspertiza ishlariiga 30 foizlik miqdorida amalga oshiriladigan bo'nak (avans) **11 670 000** sumlik to'lovi amalga oshiriladi, kolgan 70 foizi **27 230 000** sumlik smeta xujjatlari yakunlangandan keyin o'rka ziladi.

3.2. **Buyurtmachi Pudratchidan** bajarilgan ishlar hakidagi dalolatnomalarini qabul qilib, tomonlar imzo chekkanlaridan keyin joriy moliyalashtirish ishlarini bajarish majburiyatini oladi.

3.3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan amalga oshiriladigan loyixa ishlari narxi va muddati uzil – kesil xisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

4. Ishlarni topshirish va qabul kilish tartibi

4.1. Pudratchi ishlarni bajarib bo'lgach, Buyurtmachiga topshirish – qabul kilish dalolatnomasi bilan birgalikda ilova qilib 2 ta nusxada xujjatlar to'plamini taqdim etadi.

4.2. Buyurtmachi topshirish – qabul kilish dalolatnomasini va smeta xujjatlarini 5 ish kun mobaynida qabul kilish majburiyatini oladi, davlat ekspetriza xulosasi esa 10 ish kun mobaynida yotkazib berish majburiyati va pudratchiga imzolangan, yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish – qabul kilish dalolatnomasini jo'natadi. Topshirish – qabul kilish dalolatnomasi buyurtmachi tomonidan imzolanmasa, bajarilgan ishlarni, xizmatlarni qabul kilishda asosli e'tiroz bildirilmagan xollarda pudratchi yukorida ko'rsatilgan muddatda bankka bir tomonlama bajargan ishlari evaziga xaq to'lash uchun talab qo'yishga xakli.

4.3. Bajarilgan ishlarni topshirish – qabul kilish davomida buyurtmachining asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.4. Agar ishlarni bajarish jarayonida keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi ma'lum bo'lib kolsa, tomonlar 2 kun mobaynida bir – birlarini ishlar to'xtatilganligi xakida xabardor kilishlari shart va 5 kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maksadga muvofik bo'lgan yo'nalishlarini oydinlashtiruvchi masalalarni ko'rib chikishlari kerak. Ishlar to'xtatilgan xollarda tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi konunchiligidagi belgilangan majburiyatlar yuklanadi.

4.5. O'zaro xisob – kitoblar qilishning muddati kelganligi tomonlarning biri mazkur shartnomadagi ishlarni to'xtatish xaqidagi yozma xabarnoma bergen sanadan xisoblanadi.

5. Tomonlarning javobgarligi.

5.1. Buyurtmachi o'z vaqtida oldin to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlarni to'lamagan xollarda, ishlarni yakunlash muddati to'lov kechiktirilgan muddatga uzaytiriladi.

5.2. Buyurtmachi shartnomaviy moliyalashtirish lozim darajada bajarmay o'z vaqtida to'lovnini amalga oshirmaganligi uchun to'lov kechiktirilgan har bir kunga 0,4% miqdorida, ammo kechiktirilgan summaning 50% ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5.3. Pudratchi shartnomada ko'rsatilgan majburiyatini o'z vaqtida, sifatli bajarmasa, buyurtmachiga bajarilmagan ish xajmining 0,4% miqdorida, ammo 50% ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5.4. Bajarilgan ishlar (bosqichlar)da kamchilik va nuqsonlar paydo bo'lganda pudratchi ularni beg'araz bartaraf etishi kerak.

5.5. Agar sodir bo'lishiga tomonlarning hech biri javob bermaydigan (fors – major) xollar yuzaga kelsa tomonlar o'z xarakatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik me'yorlariga asoslanadi.

5.6. Shartnomani ijro etmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi uchun, javobgarlik agar shartnomada o'zgacha ko'zda tutilmagan bo'lsa O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunning 25 – 32 – moddalariga asosan javobgarlik choralar qo'llaniladi.

6. Bartaraf etilib bo'lmaydigan kuch xolati (fors - major)

6.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy xodisalar, xarbiy xarakatlar va boshqa bartaraf etilib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan

bo'lsa, xamda bu xolat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarining qisman yoki to'la iijo etilmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning iijo muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat, shuningdek shu vaziyat keltirib chiqqargan oqibat xukm surgan vaqtga mos ravishda orqaga suriladi.

6.2. Agar bartaraf etilib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, Pudratchi va Buyurtmachi loyixa ishlarini davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish uchun chora tadbirlar ko'rishni muhokama qiladilar.

Agar tomonlar 1 oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning xar qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

6.3. Buyurtmachi to'lov shartlarini o'z vaqtida bajarmasligi Pudratchi uchun «fors – major» xolatiga teng xisoblanadi.

7. Ko'shimcha shartlar

7.1. Buyurtmachi 1.1.-bandda ko'rsatilgan ob'ektdan tashkari, Pudratchi tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ish natijalaridan foydalanishga xaqli emas, Pudratchi esa olingan ish natijalaridan o'zining manfaatlari uchun foydalanish xuquqiga ega.

7.2. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan tomonlarning o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xukukiy bazasi to'grisida»gi qonuniga, xamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga asosan belgilanadi.

7.3. Tomonlar o'zlarining yuridik va bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda, bir-birlarini 3 bank kuni ichida xabardor qilishlari shart.

8. Shartnomaning amal kilish muddati va shartlari

8.1. Mazkur shartnoma tomonlar imzo chekkandan keyin va xududiy g'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kiradi va uning shartlari to'liq bajarib bo'lguncha xaqiqiy hisoblanadi.

8.2. Mazkur shartnomaning amal kilish muddati tugashiga qaramay, tomonlar shartlarni buzganliklari javobgarligidan ozod etmaydi.

8.3. Mazkur shartnoma 2 nus'hada tayyorlanadi va bir nus'hadan buyurtmachiga, pudratchiga beriladi.

8.4. Shartnoma amal qilish muddati - 31.12.2022 yil.

9. Nizolarni xal etish tartibi

9.1. Taraflar o'rtasida ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holatda paydo bo'ladigan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi.

9.2. Agar kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal qilib bo'lmasa, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

10. Shartnomaga qo'shimeha va o'zgartirishlar kiritish tartibi.

10.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday qo'shimcha va o'zgartirish kiritish, ular yozma ravishda rasmiylashtirib, har ikki tomon imzolangan hollardagina haqiqiy kuchga ega bo'ladi.

10.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuvi bo'yicha yohud O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjalardan nazarda tutiladigan asoslar bo'yicha yetkazilgan zararlarni qoplash bilan amalga oshirishi mumkin.

10.3. Shartnomani bekor qilishga qaror kilgan taraf boshqa tarafga zudlik bilan bu xaqda yozma xabarnoma yuboradi.

11. Korrupsiyaga karshi talablar



11.1. Tomonlar:

- Tomonlar ularning afillangan (uzaro boglangan) shaxslari va xodimlari, ushbu shartnoma buyicha uz majburiyatlarini bajarishlari davomida koorupsiyaga karshi kurashish soxasidagi Uzbekiston Respublikasining amaldagi konun xujjatlari talablarning buzilishiga olib keladigan va yoki korrupsiya xarakatiga ega bulgan shu jumladan pora berish yoki berishni vada kilish ta'magarlik pora olishga bevosta yoki bilvosta rozi bulish xatti-xarakatlari xarakatsizliklarni sodir etmaydilar.

- Tomonlar ularning afillangan (uzaro boglangan) shaxslari va xodimlari, boshka tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarni kandaydir tarzda ragbatlantirishdan, shu jumladan pul summalarini, sovgalarni takdim etish ularning manziliga xizmatlarni begaraz kursatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni ragbatlantiruvchi tomon foydasiga kandaydir xatti xarakatlar/xarkatsizliklar bajarilishini ta'minlashga karatilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum kiladilar.

Tomonda ushbu shartnomaning 6.1-bandidagi talablarni buzish sodir etganligi yoki sodir etilishi mumkinligi tugrisidagi shubxalar yuzaga kelgan xolda, tegishli tomon bu xakda ikkinchi tomonni xabardor kilish, korrupsiya bilan kurashish soxasidagi Uzbekiston Respublikasi konun xujjatlarining normalari buzilganligi faktini rad etib bulmaydigan dalillari mavjud bulgan xolda esa amaldagi konun xujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni xam xabardor kilish majburiyatini uz zimmasiga oladi.

12.Tomonlarning rekvizitlari

Pudratchi:	Buyurtmachi:
"PIXART" MChJ	Beruniy XTB
Manzil: Shavatskiy r. Ijtimoyat kish Uzbekiston №7 Bank: Ipoteka bank ATIB Tinchlik filiali H\r: 2020 8000 200 908 798 001 MFO: 00 580 INN: 305 614 441 Tel: 	Manzil: KR Beruniy tumani XTB Shxr: 100022860352077092100075082 INN: 200937354 Bank: Markaziy bank Toshkent shaxar Mfo: 00014 Moliya vazirligi G'aznachiligi Xr: 23402000300100001010 Inn: 201122919
Rahbar:  Iskandarov B MO*	Raxbar  A.Xudaybergenov MO*

	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	AZAD XUDAYBERGENOV SABIROVICH
	Imzolangan sana	21.12.2022 20:28
	Hujjat kodi	FM0224442102
	Hulosa kodi	DD7404312467

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

DD7404312467

- 1. Loyihaning turi :** Shartnoma
- 2. Loyihaning nomi:** **Pudrat shartnomasi**
- 3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** Beruniy tumani Xalq ta'limi bo'limi tomonidan 19.12.2022 yilda kiritilgan.


Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Beruniy tumani
yuridik xizmat
ko'rsatish markazi
bosh yuristkonsulti:



SH.A.QADIROV

20.12.2022

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Беруний туманихалқ
таълим бўлими

А.Худайбергенов
«21» декабр 2022-йил

Беруний тумани халқ таълим бўлимига қарашли 4-сонли умумий ўрта таълим мактаби биносини жорий таъмирлаш ишларини олиб бориш мақсадида энг яхши таклифларни танлаб олиш комиссиясининг энг яхши таклифларини танлаб олиш бўйича ўтказилган
—сонли мажлиб баённомаси

Катнашчилар:

Комиссия бошлиғи:

А.Худайбергнов

Лавозими

Бўлим мудири

Комиссия азолари:

Бош ҳисобчи

Ф.Абдуллаев

Ҳисобчи

М.Юсупов

Эксплуатация бўлими бошлиғи

Б.Сабиров

Эксплуатация бўлими бош

А.Раманов

мутахасиси

Г.Мухаммаджанова

Ҳисобчи

КУН ТАРТИБИДА:

Беруний тумани халқ таълим бўлими—Танлаб олиш комиссияси бошлиғи А.Худайбергенов мажлиса танлаш комиссиясининг 5 азосидан 5 инсон катнашганлигини айтиб ўтти, танлаш комиссияси мажлисини очиқ деб эълон қилди.

Танлаш комиссияси секретари танлаш комиссиясига қуидаги маълумотларни тақдик қилди:

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги 684-сонли “Давлат харидлари тўғрисида”ги Конунининг (кейинги ўринларда - Конун) 58-моддасига мувофиқ енг яхши таклифларни танлаб олиш ўтказилиши тўғрисида маҳсус информацион порталига (<http://etender.uzex.uz>)эълон танлов катнашчиларининг қабул қилиш муддати тамомланишидан 5 (беш) иш кун олдин давлат буюртмачиси томонидан ўз кабинети томонидан жойлаштирилган 2022 йил 13 декабр куни 22110012198619-сонли лот бўйича давлат харидлари маҳсус ахборот порталига жойлаштирилган ва 2022 йил 13 декабр №198619 сонли баённомаси бўйича хеч қандай мурожаат келиб тушмади.

Ўзбекистон Республикаси “Давлат харидлари тўғрисида”ги Низомга мувофиқ ва юқорида кўрсатилган маълумотларни ҳисобга олган ҳолда Танлов комиссияси

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1.Беруний тумани халқ таълим бўлимига қарашли 4-сонли умумий ўрта таълим мактаби биносинижорий таъмирлаш ишларини олиб бориш мақсадида ўтказилган Танлов олишда танлов хужжатларини ва танлов шартлари бўйича энг яхши шартларни тақдим қилган ҳамда танлаб олиш ғолиби деб топилган "ООО PIXART"МЧЖ 38 900 000сум (КҚС солиги билан) билан шартнома тузилсин.

2. Голиб ташкилот танлаб олиш шартлари асосида шартнома тузишдан бош тортган ҳолатда шартнома тузиш ҳуқуки кейинги қатнашчи (резерв) етиб, “PROJECT ENGINEER МСНJ”МЧЖ белгилансин. Бунда голиб қатнашчи тақдим қилган суммасидан ошмаган суммада шартнома тузиш мумкинлиги белгилаб куйилсин.

3. Низом талабларига мувофик танлов қатнашчиларининг тақдим қилган маълумотларини кўриб чиқиш ва баҳолаш муддати таклифлар бериш тамом бўлишидан 10 (ун) кундан ошмаслиги маълумот учун қабул қилинсин.

4. Ташкилотнинг ҳисоб-китоб бўйимида танлов якуни бўйича голиб ташкилот билан шартнома ҳужжатларини таёrlаш ва шартнома тузилганидан кейин 3 (уч) иш куни ичидамахсус ахборот порталига(<http://etender.uzex.uz>)жойлаштириш топширилсин.

5. Танлов комиссияси секретари ушбу танловга тегишли барчи ҳужжатларни белгиланган тартибда сакланишини таъминласин.

Қатнашчилар:

Комиссия бошлиғи:

Комиссия азолари:

Имзоси



Ф.И.Ш

А.Худайбергнов

Ф.Абдуллаев

М.Юсупов

Б.Сабиров

А.Раманов

Г.Мухаммаджанова